

المصباح

AL-MISBAH

*Tajvid ilmi
o'rganuvchilarining
yo'lchi chirog'i*

بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ

Bizlarga Qur'anni tartil bilan o'qishni buyurgan Alloh taolaga cheksiz hamdu sanolar, Allohning Kitobini to'g'ri tilovat qilishni bizlarga o'rgatgan Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga salot-u salomlar bo'lsin!

Qadimdan ulamolarimiz Qur'oni Karim qiroatiga, uning to'g'ri o'qilishi, harflarining to'g'ri talaffuz qilinishiga katta e'tibor berishgan. Sababi, ba'zida bitta harfning o'zgarishi butun boshli oyat ma'nosini teskari ma'noga aylantirib yuboradi.

Shuning uchun qiroat ilmining mashhur ustozlaridan Muhammad ibn Javziy (vafoti hij. 833-yil) rohimahulloh o'z "Muqaddima"larida shunday deganlar:

وَالْأَخْذُ بِالتَّجْوِیدِ حَتْمٌ لَّازِمٌ مَنْ لَمْ یُصَحِّحِ الْقُرْآنَ آثَمٌ

“(Qur'anni) tajvid bilan o'qish qat'iy lozimdir,
Kim Qur'anni to'g'ri o'qimasa, u gunohkordir”.

Qur'on oyatidagi bir dona so'zning noto'g'ri talaffuz qilinishi oqibatida arab tilshunoslari tomonidan harakatlar (fatha, damma, kasra va sukun)ning o'ylab topilishi ham Qur'onga bo'lgan e'tiborning kattaligidan darak beradi.

Qo'lingizdagi ushbu qo'llanma tajvid qoidalarining ixchamlashtirilgan va jadval ko'rinishida tartiblangan namunasidir. Qo'llanmani tayyorlashda

- Shayx Yahyo G'avsoniyning “Osonlashtirilgan tajvid qoidalari” kitoblari;
- Hasanxon Yahyo Abdulmajidning “O'n kecha bilan qasam” va “Qur'on tartili” darsliklari;
- Doktor Ayman Rushdiy Suvaydning “Qur'on o'qish qoidalari” kitoblari;
- Jahongir Ne'matovning “Tartil (Qur'on o'qish qoidalari)” kitoblari asosiy manba sifatida olindi.

O'zbek tilida arab tilidagi cho'ziq harflar bo'lmagani uchun shartli ravishda tabiiy madlarni bildirish uchun harflar ustiga “^” belgisi qo'yildi. Mazkur belgili harflar kelganda bir harf miqdorida cho'zib o'qiladi.

Misol: “lâm” - “laam”.

Qo'llanma orqali siz arab harflarining maxrajlarini, sukunli “nun” va tanvin, sukunli “mim”, madlar, qalqala (tebratish), vaqf (to'xtash) va ibtido (boshlash) qoidalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Alloh taolodan ushbu ojizona harakatlarimizni mo'min-musulmonlar uchun foydali qilishini, sahv xatolarini kechirib, fazli ila qabul qilishini so'raymiz!

QUR'ONI KARIM QANDAY KITOB?

Qur'on - Muhammad sollallohu alayhi vasallamga arabiy lafzda nozil bo'lgan, mus'haflarda yozilgan, tilovati ibodat hisoblangan, mutavotir yo'l bilan naql qilingan, "Fotiha" surasi bilan boshlanib, "An-Nas" surasi bilan tugaydigan Allohning mo'jiz (ojiz qoldiruvchi) Kalomidir.

BIZ NEGA QUR'ON O'QIYMIZ?

Alloh taolo mo'min bandalariga: "Endi Qur'ondan muyassar bo'lgan miqdorda o'qiyveringlar!" deb buyurgan (Muzzammil surasi, 20 oyat). Biz Allohning amriga bo'ysunish uchun Qur'on o'qiyviz.

QUR'ON QANDAY O'QILADI?

Alloh taolo Qur'onni Payg'ambar alayhissalomga nozil qilgan, "Qur'onni tartil bilan qiroat qiling!" deya qanday o'qishni o'rgatgan (Muzzammil surasi, 4-oyat). Qur'on harflarni dona-dona qilib, tajvid qoidalariga amal qilib o'qish tartil, deyiladi.

"TAJVID" NIMA DEGANI?

"Tajvid" so'zi lug'atda "biron narsani yaxshilab, sifatli va mukammal holda bajarish" ma'nosini anglatadi. Istilohda esa, Qur'ondagi so'zlarning har birini o'z miqdori va sifatida talaffuz qilish, iste'lo va istefola harflarini bir-biridan farqlab, tafxim, tarqiq, idg'om, izhor hamda shu kabi qoidalarga amal qilib o'qishni ta'lim beruvchi ilmdir.

"TAJVID" NIMA UCHUN KERAK?

Tajvid ilmining maqsadi har bir Qur'on o'quvchi kishiga to'g'ri va chiroyli o'qish, har xil ohanglardan saqlanishni ta'lim berish hamda dunyo-yu oxiratda bandani Allohning roziligiga erishtirish.

Qur'oni Karimni tajvid bilan o'qish Qur'on o'quvchi har bir muslim va muslima uchun **farzi ayn** hisoblanadi. Kishi xoh namozda, xoh namozdan tashqarida bo'lsin tilovatini durust qilishi lozim.

QUR'ON O'QISH FAZILATI

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu rivoyat qilishicha, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deganlar:

“Kim Allohning Kalomidan bitta harf o'qisa, unga bitta savob yoziladi. O'sha savob o'n baravar ko'paytiriladi. Men alif lom mimni bitta harf demayman. Alif bir harf, lom bir harf, mim bir harfdir”

(Termiziy, Bayhaqiy, Tabaroniy rivoyat qilgan. Hadis sanadi sahih).

QUR'ON O'QISHGA QIYNALSANGIZ...

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Qur'onga mohir bo'lgan kishi mukarram, o'ta yaxshi farishtalar bilan birga bo'ladi. O'qiganda qiynaladiganga ikki ajr bordir”, dedilar».

To'rtovlari rivoyat qilgan.

SIZLARNING ENG YAXSHILARINGIZ...

Usmon roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Sizlarning yaxshilaringiz Qur'onni o'rganganlaringiz va o'rgatganlaringizdir”, dedilar».

Buxoriy, Abu Dovud va Termiziy rivoyat qilgan.

O'Z SOHIBIGA SHAFOATCHI KITOB

Abu Umoma roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Qur'onni qiroat qiling, chunki u qiyomat kuni o'z as'hoblariga shafatchi bo'lib keladir”, dedilar».


Muslim rivoyat qilgan.

MAXRAJLAR SURATI

Arab tilidagi nutq tovushlarining maxraj va talaffuzlarini o‘rganishga kirishishdan oldin maxrajlarning nomlarini aniqlab, ular bilan yaqindan tanishib olamiz. Buning uchun avvalo nutq a‘zolari haqida kerakli darajada tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim.

Quyida (o‘pka va nafas yo‘lidan boshqa) nutq a‘zolari uchun umumiy surat berilgan. Unda har bir a‘zo o‘ziga xos rangga ega. A‘zo nomi uning yon tomoniga yozilgan. Bu a‘zolari odatda “bosh maxrajlar” deyiladi.


BOSH MAXRAJLAR




Arab nutq tovushlarining maxrajlari

Arab nutq tovushlarining hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra nutq a‘zolari turli mintaqalarga bo‘linadi va ularning har biri alohida maxraj hisoblanadi. Ularni odatga muvofiq, havo oqimining yo‘nalishiga ko‘ra, ya‘ni oldin halqumni, keyin tanglay, til va tishlarni o‘rganamiz.



HALQUM




TANGLAY



TIL



TISHLAR



Old tishlar (4 ta)



Ikkilamchi old tishlar (4 ta)



Yordamchi tishlar (4 ta)



Tabassum tishlar (4 ta)



Tegirmon tishlar (12 ta)



Aql tishlar (4 ta)



Oziq tishlar (20 ta)



*Yuqoridagi oziq tishlar o'zbek tilida kurak tishlar deb yuritiladi.

GURANUZ

Arab alifbosi harflarining maxraji


Javf (halqum va og'iz bo'shlig'i) harflari

Unlilar: a, u, i (â, û, î) (ي و ا) ا ا ا


Hosil bo'lish o'rni: halqum va og'iz bo'shlig'i.

Hosil bo'lish usuli: tovush og'izga yo'nalib, til va lab harakatlanadi. Til va labning harakatiga ko'ra unlilar bir-biridan farqlanadi.


Farqi: halqum va og'iz bo'shlig'i teng ishtirok etadi. Asosan, û unlida til orqasi va lablar faolroq bo'ladi.



â



û



î


Halqum harflari

ح


Hosil bo'lish o'rni: tovush paychalari.

Hosil bo'lish usuli: tovush paychalarining qisqa muddat yopilishidan hosil bo'lgan to'siqda juda qisqa vaqt tutilib, so'ng uni kuch bilan yorib o'tishi natijasida hosil bo'ladi. O'zbek tilida bunday tovush yo'q. Biroq unga yaqin tovushni arab tilidan kirgan ayrim so'zlar iste'molida uchratishimiz mumkin.


Masalan: mas'ul, Qur'on va hokazo.



ح Hamza



Harakatli hamzaning hosil bo'lishi
(tovush paychalari bir-biridan ajraydi)




Sokin hamzaning hosil bo'lishi
(tovush paychalari yopiladi)


ه

Hosil bo'lish o'rni: halqumning boshi, tovush paychalari.

Hosil bo'lish usuli: tovush paychalarining o'zaro yaqinlashuvidan tovush sirg'alib o'tadi.



Hâ undoshining hosil bo'lishi
(Tovush paychalari orasi biroz ochiq qoladi)



ه Hâ


Farqi: ه bevosita tovush paychalarining o'zida hosil bo'ladi va shuning uchun nisbatan aniqroq, kuchliroq aytiladi. O'zbek tilida "h" bo'g'iz tovushi hisoblansa-da, tovush paychalarida emas, halqum devorlarida va til negizida hosil bo'ladi.

ح

Hosil bo'lish o'rni:

Halqum o'rtasi, hiqildoq osti tog'ayi.

Hosil bo'lish usuli: Hiqildoq osti tog'ayining halqum devori tomon tortilishi natijasida, halqum o'rtasi torayib, chiqayotgan havo o'sha oraliqdan halqum devorlariga sirg'alib, ishqalanib o'tishi bilan hosil bo'ladi.




ح H:â

ع

Hosil bo'lish o'rni:


Halqum o'rtasi, hiqildoq osti tog'ayi.

Hosil bo'lish usuli: Tilning negizida joylashgan hiqildoq osti tog'ayi halqum o'rtasi tomon tortiladi va bundan vujudga kelgan to'siqda chiqayotgan havo o'ta qisqa vaqt bo'g'ilib, so'ng portlaydi. Bunda halqum o'rtasi to'liq yopilmay, ozgina joy qoladi. U yuqorida o'tgan “ح – h:â” undoshi bilan bir joydan hosil bo'ladi.




ع 'ayyn

خ
غ



غ G'oyyn



خ Xô

Hosil bo'lish o'rni: halqumning yuqorisi, tilning negizi bilan lak-luk.

Hosil bo'lish usuli: خ undoshi shovqindan iborat, un paychalari nofaol bo'adi.

غ undoshida esa un paychalari faol, ovoz hissasi yuqori, tovush jarangli bo'ladi.

Farqi: ikkalasi ham halqum yuqorisida, til negizida hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi muqobillari biroz oldiroqda, chuqur til orqadan aytiladi.

Til harflari


Til orqasi

ق

Hosil bo'lish o'ri: chuqur til orqa va yumshoq tanglay.

Hosil bo'lish usuli: chuqur til orqa yumshoq tanglayga qattiq uriladi va tovush jarangli hosil bo'ladi.

Farqi: ق chuqur til orqadan, jarangli hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi muqobili biroz oldiroqda va jarangsiz aytiladi.




ك

Hosil bo'lish o'ri: sayoz til orqa va yumshoq tanglayning qattiq tanglayga tutashgan joyi.

Hosil bo'lish usuli: sayoz til orqa tanglay bilan to'qnashadi va yarim jarangli hosil bo'ladi.

Farqi: ك sayoz til orqada va yarim jarangli hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi muqobili biroz oldiroqda, to'liq jarangsiz.



Til o'rtasi

Hosil bo'lish o'ri: til o'rtasi va qattiq tanglay.




Hosil bo'lish usuli: ج undoshi portlab, ش va

ي undoshlari sirg'alib hosil bo'ladi.

Farqi: uchala undosh ham til o'rtasida hosil bo'ladi. Ularning o'zbek tilidagi


muqobillari esa til oldida aytiladi. Faqat ayrim so'zlardagina ularning til o'rtasiga yaqin hosil bo'lishi bor. Masalan, jo'ra, jo'ja, koshona, yomon, yumronqoziq. ج undoshi sof portlovchi, o'zbek tilidagi "j" esa qorishqlik xususiyatiga ega.

ي ش ج



Til chekkasi (cheti)

ض



Hosil bo'lish o'rni: Tilning o'ng va chap baxyasi bilan oziq tishlarning ichki devori.


Hosil bo'lish usuli: Tilning o'ng yoki chap yon baxyasini yoxud har ikki baxyasini birdan yuqori oziq tishlarga urish bilan hosil bo'ladi. Ayni paytda halqum torayib, tilning orqasi yuqori tanglay tomon ko'tariladi. Uni ikki tomondan teng talaffuz etishda tilning tanglay o'rtasiga yopishib qolishidan saqlanish kerak.

Bunda tilning aylana baxyasi tanglay oldiga taqaladi, ammo tilning bosilishi va tovushning hosil bo'lishi yon baxyada ijro topadi. Tilning oldi baxyasi esa tanglay oldiga tegib turadi, xolos. Suratga qarang:




Hiyol tegib turadi

Zarb va bosim yuz beradigan joy




Til yon baxyasining tugashi

Til yon baxyasining boshlanishi



ض Dz:ôd

ل




Hosil bo'lish o'rni: til oldi baxyasi va tanglay oldi, yuqori oldi tishlar milki.

Hosil bo'lish usuli: til baxyasi tanglay oldiga, yuqori oldi tishlar milkiga bosiladi, tovush tilning ikki yonidan o'tib, tashqariga chiqadi.

Farqi: ل undoshining hosil bo'lish o'rni kengroq bo'lib, uning talaffuzida til oldining o'zi emas, baxyasi bilan qo'shilib ishtirok etadi.




ل Lâm undoshining o'rni:
Til yon baxyasi tugagan joydan tilning uchigacha bo'lgan qismi bilan uning qarshisidagi tanglay oldi.



Til baxyasining markazi


Yon baxyaning tugashi

Yon baxyaning tugashi



ل Lâm



Tafximli va tarqimli “lam” o‘rtasidagi farq:
Tafximli “lam” talaffuzida til o‘rtasida chuqurlik va halqumda torayish paydo bo‘ladi. Bu holat tarqimli “lam”da kuzatilmaydi.



Til oldi

Dimog‘ harfi

ن





Hosil bo‘lish o‘rni: til oldi va kurak tishlar milki.

Hosil bo‘lish usuli: til oldi kurak tishlar milkiga jipslashadi va tovush dimog‘dan chiqadi.

Farqi: ن undoshida dimog‘ning ishtiroki yanada faol bo‘ladi.

ر



Hosil bo‘lish o‘rni: til oldi yuzasi va tanglay oldi, kurak tishlar milki.

Hosil bo‘lish usuli: til tanglay oldiga titrgana holda uriladi.


Farqi: ر o‘zbek tilidagiga nisbatan aniqroq va biroz oldiroqda aytiladi. Ba‘zan yo‘g‘onlashadi. O‘zbek tilida ham bu holat qisman bor. Masalan, “rost” so‘zidagi “r” tovushida.

Til uchi yuzasi va til oldi yuzasi harflari

ط

Hosil bo'lish o'rni: Tilning uch yuzasi bilan kurak tishlar milki, aniqrog'i, uning tishga tutash joyi.

Hosil bo'lish usuli: Til uch yuzasi yuqori old tishlar milkiga qattiq uriladi va ayni paytda halqum torayib, tilning orqasi yuqori tanglay tomon ko'tariladi. Shu bois, u yo'g'on, og'iz to'lib hosil bo'ladi. U "t" undoshining yo'g'on shaklidir. U o'zbek tilidagi "to'fon", "qatra" so'zlaridagi "t" tovushini eslatadi.




د ت

Hosil bo'lish o'rni: til oldi va milking kurak tishlarga tutash joyi.

Hosil bo'lish usuli: د portlab hosil bo'ladi.

ت sirg'alib hosil bo'ladi.

Farqi: د yanada jarangli, kuchliroq va ت ham aniqroq aytiladi. د – dâl hech qachon "t"lashmaydi.




ص

Hosil bo'lish o'rni:

Til uch yuzasi bilan kurak tishlarning ichki devori va pastki oldi tishlarning qiri.

Hosil bo'lish usuli: Til uchi yuzasi kurak tishlarning ichki devoriga yaqinlashib, tirqish hosil qiladi va shu tirqishdan havo oqimi erkin sirg'alib o'tadi. Ayni paytda halqum torayib, tilning orqasi yuqori tanglay tomon ko'tariladi. U س – s undoshining yo'g'on shaklidir. Bu o'zbek tilidagi "rost", "soy" so'zlaridagi "s" tovushini eslatadi.




س ز

Hosil bo'lish o'rni: til oldi, kurak tishlar milki va ichki devori bilan birga pastki oldi tishlar qiri.

Hosil bo'lish usuli: til oldi kurak tishlar milkiga yaqinlashib, tirqish hosil qiladi. Tovush o'sha joydan sirg'alib o'tib, pastki oldi tishlar qiriga urilib chiqadi.

Farqi: س va ز yanada shovqinli va hech qachon bir-biriga qorishmaydi.




ظ

Hosil bo'lish o'rni: Til uch yuzasi bilan kurak tishlarning qiri.

Hosil bo'lish usuli: Til uch yuzasi yuqori old tishlar qiriga bosiladi va ayni paytda halqum torayib, tilning orqasi yuqori tanglay tomon ko'tariladi. Shu bois, u yo'g'on, og'iz to'lib hosil bo'ladi.


U "z:â" undoshining yo'g'on shaklidir.



ذ

Hosil bo'lish o'rni: Til uch yuzasi bilan kurak tishlarning qiri.


Hosil bo'lish usuli: Til uch yuzasi yuqori old tishlar qiriga bosiladi va maxrajda havo oqimi to'siladi, ammo ovoz bo'g'ilmaydi.



ث

Hosil bo'lish o'rni: Til uch yuzasi bilan kurak tishlarning qiri.


Hosil bo'lish usuli: Til uch yuzasi yuqori old tishlar qiriga bosiladi, maxrajdan havo oqimi erkin sirg'alib o'tadi. O'zbek tilida bunday tovush yo'q.



Lab harflari

ف


Hosil bo'lish o'rni: pastki lab va kurak tishlar qiri.
Hosil bo'lish usuli: lab kurak tishlarga hiyol bosiladi.
Farqi: ف yanada shovqinli va hech qachon "v" lashmaydi.



و



Hosil bo'lish o'rni: lablar.
Hosil bo'lish usuli: lablar cho'chchayadi va til orqasi faollashadi.

Farqi: و hamisha faqat lablarda aytiladi, tish ishtirok etmaydi, lablarning cho'chchayishi va til orqasi faolroq bo'ladi.




م

Hosil bo'lish o'rni: lablar.
Hosil bo'lish usuli: lablar o'zaro jiplashadi va tovush dimog'dan chiqadi.
Farqi: dimog'ning ishtiroki yanada faol bo'ladi.



ب

Hosil bo'lish o'rni: lablar.
Hosil bo'lish usuli: lablar o'zaro keskin to'qnashadi.
Farqi: yanada jarangli va hech qachon "p" lashmaydi.



SUKUNLI "NUN" VA TANVIN QOIDALARI

IZHOR

IQLOB

IDG'OM

IXFO

IZHOR

«Izhor» soʻzi bayon qilish, ochiqlash degan maʼnoni bildiradi.

Tajvid ilmi istilohida esa izhor deb harfni maxrajidan gʻunnasiz chiqarib talaffuz qilishga aytiladi.

Agar sukunli «nun» yoki tanvin halqumdan chiqadigan:

ء، ه، ع، ح، غ، خ

harflardan oldin kelsa, uni izhor qilib, gʻunnasiz, aniq talaffuz qilish vojibdir.

Misollar:

«فَسَيُنْغِضُونَ» «مِنْ غِلٍّ» «لَعَفُو غُفُورًا» - «غ»

IQLOB

«Iqlob» soʻzining maʼnosi bir narsani boshqa narsaga aylantirishdir. Tajvid ilmida esa iqlob deb sukunli «nun» yoki tanvindan keyin «baa» harfi kelganda uni «mim» tovushiga aylantirib, gʻunna bilan oʻqishga aytiladi. Iqlob qilish uchun sukunli «nun» yoki tanvin tovushini dimogʻda «mim» tovushiga aylantirib, gʻunnali talaffuz qilinadi.

Misollar:

«لَيُنْبَذَنَّ» «عَلَيْمٌ بِذَاتِ الصُّدُورِ»

Shunda talaffuz qilish quyidagicha boʻladi:

[لَيْمَبَذَنَّ, عَلِيمٌ بِذَاتِ]



IDG'OM

«Idg'om» so'zi lug'atda bir narsani ikkinchi narsaga kiritish degan ma'noni anglatadi. Tajvid ilmida esa idg'om deb birinchisi sukunli, ikkinchisi harakatli ikki harfni qo'shib, birinchi harfni ikkinchi harfga aylantirib, ikkilantirib talaffuz qilishga aytiladi.

IDG'OMNING TURLARI

G'UNNALI

G'unnali* idg'om qilinadigan harflar to'rtta bo'lib, (يومن) so'zida jamlangan.

Misollar:

«مَنْ يَعْمَلُ» «فِيئَةً يَنْصُرُونَهُ» «ي»

«مِنْ وَلِيِّ» «سِرَاجًا وَهَاجًا» «و»

«مِنْ مَاءٍ» «صِرَاطٍ مُسْتَقِيمٍ» «م»

«إِنْ نَقُولُ» «مَلِكًا نَقْتُلُ» «ن»

G'UNNASIZ

G'unnasiz idg'om qilib o'qiladigan harflar esa «lom» va «roo» (ل، ر) harflaridir.

Misollar:

«أَنْ لَوْ» «أَنْدَادًا لِيُضِلُّوا» «ل»

«مِنْ رَبِّكَ» «بَشَرًا رَسُولًا» «ر»

*G'unna: «Mim» va «nun» harflarini talaffuz qilganda burun bo'shlig'ida paydo bo'lib, burun orqali chiqadigan dimog'li tovushdir.

IXFO

Ixfo deb sukunli “nun” yoki tanvin ushbu 15 ta

ت ث ج د ذ ز س ش ص ض ط ظ ف ق ك

ixfo harflaridan biriga yo‘liqqanida “nun”ni o‘sha harfning maxrajiga yashirib, ikki harakat miqdoricha g‘unna qilib o‘qishga aytiladi.

MISOLLAR:

«ص»	«مِنِ صَدَقَةٍ» «قَاعًا صَفْصَفًا»
«ك»	«مَنْ كَانَ» «كَيْتُ كَرِيمٌ»
«ق»	«مِنِ قَبْلُ» «عَذَابٌ قَرِيبٌ»
«س»	«قَوْلًا سَدِيدًا» «وَلَيْسَ سَأَلْتَهُمْ»
«ذ»	«مَنْ ذَا الَّذِي» «عَزِيزٌ ذُو انْتِقَامٍ»
«ج»	«مَنْ جَاءَ» «فَصَبِرْ جَمِيلٌ»
«ف»	«مَنْ فَضَّةٌ» «مَنْ فَضَّةٌ»
«ض»	«مَنْ ضَلَّ» «قَوْمًا ضَالِّينَ»

SUKUNLI "MIM" QOIDALARI

SHAFAVIY IXFO

SHAFAVIY IDG'OM

SHAFAVIY IZHOR

SHAFAVIY IXFO

Sukunli «mim»dan keyin «baa» harfi kelsa, «mim» tovushi «baa» tovushining ichiga yashirib, g'unnali o'qiladi. Misol:

«تَرْمِيهِمْ بِحِجَارَةٍ» «وَهُمْ بِالْآخِرَةِ»

SHAFAVIY IDG'OM

Sukunli «mim»dan keyin yana «mim» harfi kelsa, birinchi «mim» ikkinchi «mim»ning ichiga kiritib, g'unnali o'qiladi.

Ikkita bir xil harf bir-biriga kiritilgani uchun idg'om mutamasilayn yoki idg'om mislayn (ikkita o'xshashni yoki ikkita bir xilni kiritish) deyiladi.

Misol:

«فِي قُلُوبِهِمْ مَرَضٌ» «لَهُمْ مَا يَشَاءُونَ»

SHAFAVIY IZHOR

Sukunli «mim»dan keyin «baa» yoki «mim»dan boshqa hijo harflari kelsa, ular g'unnasiz, ochiq, aniq talaffuz qilib o'qiladi. Misol:

«مَثَلُهُمْ كَمَثَلِ» «هُمْ فِيهَا»

«mim» harfidan keyin «faa» va «voov» harfi kelganda Izhor yana ham kuchliroq aytiladi.

MAD QOIDALARI

«Mad» soʻzining maʼnosi ziyoda qilish, koʻpaytirishdir. Tajvid ilmida esa mad deb harflarda ovozni, tovushni choʻzishga aytiladi.

Mad harflari jami uchta boʻlib ular: oʻzidan oldin fathali harf kelgan sukunli «alif», oʻzidan oldin zammali harf kelgan sukunli «vov», oʻzidan oldin kasrali harf kelgan sukunli «yaa». Bu harflar

نُوحِيهَا

soʻzida jamlangan.

MADNING TURLARI

ASLIY

Asliy madlar — hamza yoki sukun tufayli boʻlmagan, ikki harakatdan koʻp choʻzilmaydigan madlardir.

Asliy madlar toʻrt xil boʻladi:

1. Tabiiy mad.
2. Badal mad.
3. Evaz mad.
4. Kichik sila mad.

FARʼIY

Farʼiy madlar — mad harfi hamza yoki sukunga yoʻliqishi tufayli hosil boʻlgan madlar.

Farʼiy madlar besh xil boʻladi:

1. Vojib muttasil mad.
 2. Joiz munfasil mad.
 3. Lozim mad.
 4. Sukun oriz mad.
 5. Lin mad.
- Katta sila mad joiz munfasil madga qoʻshiladi.

ASLIY MADLAR

TABIYY MAD

BADAL MAD

EVAZ MAD

SILA MAD

TABIYY MAD

Tabiiy mad - o'zidan oldin yoki keyin hamza yoki sukun kelmagan maddir. Misol:

«قَالَ» «قِيلَ» «يَقُولُ»

Tabiiy mad ikki harakat* cho'ziladi.

Misol: **فِيهِمَا**, **نُوحِيهَا**

*Bir harakat deganda bir barmoqni o'rta tezlikda ochish yoki yopishga ketadigan vaqtni tushunish kerak.

BADAL MAD

Mad harfidan oldin hamza kelsa, badal mad bo'ladi. Misol:

«ءَادَمَ» «أُوْتُوا» «إِيْمَانًا»

Badal mad vaqfda (shu harfga kelib to'xtaganda) ham, vaslda (qo'shib o'qilganda) ham ikki harakat cho'ziladi.

Misollar:

«مُتَكَبِّرِينَ» «مَسْئُولًا» «الْقُرْءَانَ» «رُءُوسِهِمْ» «أُوْتِيَ» «ءَاتَيْنَا»

EVAZ MAD

Fathali tanvin bilan tugagan harfda to‘xtagan paytdagi mad evaz mad deyiladi. Misol:

«عَفْوًا» «رَحِيمًا» «شَكُورًا»

Evaz mad ikki harakat cho‘ziladi va faqat vaqfda, ya‘ni o‘qib kelib shu harfda to‘xtaganda bo‘ladi.

Misollar:

«حَمِيدًا» «عَلِيمًا» «غَرَفًا» «نَشْطًا» «مَاءً» «سَوَاءً»

SILA MAD


Sila mad uchinchi shaxs, muzakkar, birlik olmoshining cho‘zilishiga xosdir. U ikki qismga bo‘linadi:

A. Kichik sila mad: «Ha»

(ه - هـ) olmoshidan keyin hamza kelmasa, kichik sila mad bo‘ladi.

Misol:

«لَهُ مَا فِي» «كِتَابُهُ وَرَاءَ ظَهْرِهِ»




Bunday mad asliy madga qo‘shiladi, chunki uni ikki harakatdan ko‘p cho‘zib bo‘lmaydi.

B. Katta sila mad: «Ha»

(ه - هـ) olmoshidan keyin qat‘iy hamza* kelsa (ya‘ni vasliy hamza emas), katta sila mad bo‘ladi.

Misol:

«مَالَهُ أَخْلَدَهُ» «وَتَأَقَهُ أَحَدٌ»




Bunday mad far‘iy madga qo‘shiladi.

* Qat‘iy hamza har doim o‘qiladigan hamzadir. U so‘z boshida kelib, undan boshlab o‘qilganda ham, o‘zidan avvalgi so‘zga ulab o‘qilganida ham tushib qolmaydi. U kalimaning boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishi mumkin.

FAR'iy MADLAR

Far'iy mad – mad harfi bilan hamza yoki sukun birga kelgani uchun ikki harakatdan ko'p cho'ziladigan maddir.



VOJIB MUTTASIL MAD

Bir so'zning o'zida mad harfidan keyin hamza kelsa, vojib muttasil mad bo'ladi.

Misol:

«شَاءَ» «السَّائِلَ» «سُوءٍ»

Vaslda (qo'shib o'qilganda) to'rt yoki besh harakat cho'ziladi. Ulamolar to'rt harakat o'qishni tanlashgan.

JOIZ MUNFASIL MAD

Soʻzning oxiri mad harfi boʻlib, undan keyingi soʻzning birinchi harfi hamza boʻlsa, joiz munfasil mad boʻladi.

Misol:

«وَتُوبُوا إِلَى اللَّهِ» «إِذَا أَرَادَ» «وَفِي أَنْفُسِكُمْ»

Joiz munfasil mad toʻrt yoki besh harakat choʻzib oʻqiladi. Ulamolar toʻrt harakat choʻzishni tanlashgan. Ammo uni ikki harakat miqdorida choʻzish ham joiz. Bu hukmda (choʻzish hukmida) unga katta sila mad ham qoʻshiladi.

LOZIM MAD

Mad harfidan keyin vasl va vaqf (qoʻshib oʻqish va toʻxtash) hollarida lozim sukun* kelsa, lozim mad boʻladi. Misol:

«الصَّاحَّةُ» «الْحَاقَّةُ»

Lozim madni olti harakat choʻzish lozim (qiroat ulamolarining barchasi olti harakat choʻzish vojib deyishgan).

* Sukun ikki xil boʻladi: lozim va oriziy. Kalimaning asl tarkibida bor boʻlgan sukun «lozim sukun» deyiladi. «Lozim» soʻzi «oʻzgarmas» degan maʼnoni anglatadi. Bu sukun «asliy» deb ham yuritiladi. Vaqf sababli kalimaning oxirgi harfining harakati oʻrniga kelgan sukun «oriz sukun» deyiladi. «Oriz» soʻzi lugʻatda «vaqtinchalik» degan maʼnoni anglatadi.

LOZIM MADNING TURLARI

Lozim mad ikki xil — kalimiy (soʻzda keladigan) va harfiy (harfda keladigan boʻladi. Ularning har biri yana ikkiga – musaqqal (tashdidli) va muxaffafga (tashdidsiz) boʻlinadi.

Lozim musaqqal kalimiy mad

Mad harfidan keyin tashdidli harf kelsa, lozim musaqqal kalimiy mad bo'ladi. Misol:

«الطَّامَّةُ» «دَابَّةٌ» «الْحَاقَّةُ» «الصَّاحَّةُ»

Lozim muxaffaf kalimiy mad

Mad harfidan keyin sukunli harf kelsa, lozim muxaffaf kalimiy mad bo'ladi. Misol:

«ءَأْتَنَ وَقَدْ كُنْتُمْ بِهِ تَسْتَعْجِلُونَ» «ءَأْتَنَ وَقَدْ عَصَيْتَ»

Qur'onda bunga shu ikki misoldan boshqa misol yo'q. Ular Yunus surasining 51 hamda 91 oyatlaridir.

Lozim musaqqal harfiy mad

Ba'zi suralarning boshida keladigan, tahajjiy qilganda uchta harfdan iborat, o'rtasi mad harfi bo'lgan, uchinchi harfi o'zidan keyingi harfga idg'om qilingan harfdir.

Tahajjiy qilish deb harfning alifbodagi nomini to'liq o'qishga aytiladi. Masalan:

آم

harflarini «alif», «laam», «miim» deb o'qish. «Lam» harfining nomidagi ikkinchi tovush, ya'ni «alif» mad qilinadi, uchinchi «mim» tovushi keyingi so'zning boshidagi «mim» tovushiga idg'om qilinadi.

Lozim muxaffaf harfiy mad

Ba'zi suralarning boshidagi tahajjiy qilganda uchta harfdan iborat, o'rtasi mad harfi bo'lgan, ammo uchinchi harfi sukunli harfdir. Misol uchun:

«ق» «ص»

ORIZ MAD

Mad yoki lin harfdan keyin to‘xtaganda oriz sukun kelsa, sukunga yo‘liqqan mad bo‘ladi. Bunday mad «sukun oriz mad» deb ataladi. Misol:

«الْمَاءِ» «الْعَلَمِينَ» «الرَّحِيمِ»

Shu so‘zda to‘xtalsa, sukun oriz madni ikki, to‘rt va olti harakat cho‘zish joiz. Agar keyingi so‘zga qo‘shib o‘qisak, madning sababi tushib qolib, tabiiy madga aylanadi.

Eslatma: Tilovat qilayotgan odam qiroat asnosida oriz madlarni bir xilda o‘qishi matlubdir, ya’ni qasr qilib (ikki harakat cho‘zib) o‘qisa, qiroatini oxirigacha qasr qilishi, agar tavassut (to‘rt harakat cho‘zib) o‘qisa, qiroatini tavassut bilan davom ettirishi tavsiya etiladi.

LIN MAD

Fathali harfdan keyin sukunli «vov» yoki «yaa» kelib, undan keyingi harfga to‘xtalsa, lin mad bo‘ladi. Misol:

«الْبَيْتِ» «خَوْفِ» «قُرَيْشٍ» «وَالصَّيْفِ» «عَلَيْهِ» «شَيْءٍ»

Lin madni ikki, to‘rt va olti harakat cho‘zish joiz. Quyidagi surani o‘qing va undagi lin madlarga e’tibor qiling.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ
لَا يَلْفِ قُرَيْشٍ ① إِيْلَهُمْ رِحْلَةَ الشِّتَاءِ وَالصَّيْفِ
فَلْيَعْبُدُوا رَبَّ هَذَا الْبَيْتِ ② الَّذِي أَطْعَمَهُمْ
مِّنْ جُوعٍ وَءَامَنَهُمْ مِّنْ خَوْفٍ ④

QALQALA

«Qalqala» soʻzi «tebranish», «beqarorlik» degan maʼnoni anglatadi. Tajvid ilmida esa qalqala deb sukunli harfni talaffuz qilganda uning maxrajida ovozni kuchli tebratishga aytiladi, yaʼni qalqala – tovushni sukunli holida tebratib, jaranglatib aytishdir.

Qalqala harflari beshta boʻlib, ular

«قُطْبُ جَدِّ»

soʻzida jamlangan. Bular sukunli holida to jarang eshitilguncha tebranishi va qalqala qilinishi lozim.

Misol: «الْفَلَقُ»

QALQALANING TURLARI

KICHIK

Qalqala harflari soʻz oʻrtasida sukunli kelsa yoki gapning oʻrtasida kelsa, kichik qalqala boʻladi.

Misollar:

«خَلَقْنَا»

«لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ»

KATTA

Qalqala harflari soʻzning oxirida kelsa, katta qalqala boʻladi. Misol:

«أَخْتَلَقُ»

Bunda tebranish va jarang kichik qalqalaga nisbatan kuchliroq boʻladi.

MISOLLAR:

Harf: ق

Qalqala turi: Kichik

«وَيَقْتُلُونَ» «يَقْدِرُونَ»

Harf: ط

Qalqala turi: Katta

«لُوطٍ» «مُحِيطٌ»

Harf: ب

Qalqala turi: Katta

«رَقِيبٌ» «الْثَّاقِبُ»

Harf: ج

Qalqala turi: Katta

«الْبُرُوجِ» «بَهِيْجٍ»

Harf: د

Qalqala turi: Katta

«الْمَوْعُودِ» «أَحَدٌ»

«RO» HARFINING QOIDALARI

TAFXIM
(yo'g'on aytish)

TARQIQ
(ingichka aytish)

**TAFXIM HAM,
TARQIQ HAM JOIZ
BO'LGAN HOLAT**

«RO» QUYIDAGI HOLATLARDA TAFXIM QILINADI:

1. Zammali bo'lsa, masalan:

«أَبْصَرُهَا» «رُحَمَاءُ»

2. Fathali bo'lsa, masalan:

«رَبَّنَا» «فِرَاشًا»

3. Zammadan keyin sukunli kelsa, masalan:

«الْغُرْفَةَ»

4. Fathadan keyin sukunli kelsa, masalan:

«مَرِيْمَ»

5. Asliy kasradan keyin sukunli kelsa va undan keyin iste'lo harflaridan biri bilan bir so'zda kelsa, masalan:

«مَرِصَادًا»

6. Oriz kasradan keyin sukunli kelsa, masalan:

«أُمُّ أَرْتَابَوًّا» «لِمَنْ أَرْتَضَىٰ»

Yuqoridagi holatlarda vaslda ham, vaqfda ham tafxim qilinadi (yo'g'on aytiladi).

7. «Yaa»dan boshqa sukunli harfdan keyin sukunli kelsa, u sukunli harfdan oldingi harf zammali yoki fathali bo'lsa, faqat vaqfda tafxim qilinadi. Masalan:

«وَالْفَجْرِ» «الْكَفْرِ» «الْأُمُورِ»

Vaslda esa «ro»ning harakatiga qaraladi, agar zamma yoki fathali bo'lsa tafxim qilinadi, agar kasrali bo'lsa tarqiq qilinadi.

«RO» QUIYIDAGI HOLATLARDA TARQIQ QILINADI:

1. Kasrali bo‘lganida, masalan:

«رَزَقًا» «مَرِيحٍ»

2. Asliy kasradan keyin kelib, «ro» sukunli bo‘lib, undan keyin iste‘lo harfi kelmasa, masalan:

«شِرْعَةً» «الْفِرْدَوْسِ»

3. So‘zning oxirida sukunli kelsa va undan oldin sukunli «yaa» bo‘lsa, masalan:

«خَيْرٌ»

4. So‘zning oxirida sukunli kelib, undan oldin «yaa»dan boshqa sukunli harf kelib, undan avval kasrali harf kelsa, masalan:

«وَالذِّكْرِ» «السَّحْرِ»

5. So‘zning oxirida sukunli kelsa va undan oldin asliy kasra kelsa, masalan:

«نَاصِرٍ» «لِقَادِرٍ»

Bu vaqf, ya‘ni to‘xtalغان holatda.

6. So‘zning oxirida sukunli kelsa, undan oldin asliy kasra va keyingi so‘zning boshida esa iste‘lo harfi kelsa, masalan:

«أَنْذِرْ قَوْمَكَ» «فَاصْبِرْ صَبْرًا»

TAFXIM HAM, TARQIQ HAM JOIZ BO‘LGAN HOLAT

Quyidagi va shunga o‘xshash hollarda tafxim ham, tarqiq ham joiz bo‘ladi:

1. Kasradan keyin kelgan “ro” sukunli bo‘lib, undan keyin kasrali iste‘lo harfi kelsa.

Misol: «فَرَقٌ»


2. Sukun bilan to‘xtalغان “ro” dan avvalgi harf sukunli iste‘lo harfi bo‘lsa va undan oldingi harf kasrali kelsa.

Misol: «مِصْرٌ» «الْقَطْرِ»


Foyda: “وَنُذِرُ” hamda “يَسِرُ” va “Qamar” surasining olti o‘rnida kelgan “وَنُذِرُ” kalimalarida to‘xtalsa, tafxim ham, tarqiq ham joiz. Biroq ayrim ulamolár nazdida, tarqiq avloroq. Chunki bu kalimalardagi ر harfidan keyin ي tushirib qoldirilgan. Shu ي ni bildirish uchun , ga kasra harakati berilgan. Ana shu ي ni e‘tiborga olgan holda tarqiq o‘qish afzalroq. Vallohu a‘lam.

VAQF VA IBTIDO

Vaqf (o'qishdan to'xtash) va ibtido (o'qishni boshlash) tartilning eng muhim qoidalaridan biri bo'lib, tilovat qiluvchi ularga jiddiy e'tibor berishi lozim.



VAQFNING TURLARI



1. INTIZORIY VAQF

O'nta mutavotir qiroatni jamlab o'qib berish paytida bir kalimada o'sha qiroat turlarini birma-bir ifodalash maqsadida to'xtash.

2. IXTIBORIY VAQF

Ustoz shogirdining qiroatdagi mahoratini bilish uchun bir so'zni ko'rsatib, unda qanday to'xtalishini sinash yoki to'xtashga majbur bo'lganda qanday vaqf qilishni ta'lim berish uchun qo'llanadigan vaqf.

3. IZTIRORIY VAQF

Nafas yetmay qolish, aksirish, yo'talish, unutish kabi sabablar bilan majburiy to'xtash.

4. IXTIYORIY VAQF

Qori o'z ixtiyori bilan to'xtashi. Bu bobda iroda qilingan vaqf turi mana shudir.

1. Tom vaqf.

Ma’no to‘la bo‘lib, keyingi oyatga lafzda, ya’ni grammatik jihatdan ham, ma’noda, ya’ni gap oqimida ham bog‘liqlik yo‘q joyda qilingan vaqf. Bu turdagi vaqf ko‘pincha oyatlar oxiri, qissalar tugagan joyda bo‘ladi.

Hukmi: To‘xtagan yaxshi.

Misollar:

«مَلِكِ يَوْمِ الدِّينِ» «وَأُولَئِكَ هُمُ الْمُفْلِحُونَ»

قل

2. Kofiy vaqf.

Alohida qaralganda, ma’no tugal, biroq keyingiga nisbatan lafzda emas, ma’noda aloqasi bo‘lgan joyda to‘xtalgan vaqf.

Hukmi: To‘xtash ham, ulab ketish ham joiz. Misollar:

«فِي قُلُوبِهِمْ مَرَضٌ فَزَادَهُمُ اللَّهُ مَرَضًا» kalimasida

«فِي قُلُوبِهِمْ مَرَضٌ»ga

kelganda to‘xtash ham, ulab ketish ham joiz.

ج

صلة

3. Hasan vaqf

Alohida qaralganda, tugal ma’noli, biroq keyingi oyatga nisbatan ham lafzda, ham ma’noda bog‘liqligi bo‘lgan joyda to‘xtalgan vaqf.

Hukmi: To‘xtash joiz, biroq agar to‘xtalgan joy oyatning boshi bo‘lmasa, shu joydan boshlab ketish yaxshi emas. Balki, bir ikki kalima orqaroqdan boshlanadi.

Misollar:

«الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ» oyatida agar «الْحَمْدُ لِلَّهِ»da to‘xtasa, yana

qaytadan boshlab «رَبِّ الْعَالَمِينَ»ni ulab ketadi.

Agar to‘xtalgan joy oyatning oxiri bo‘lsa, undan keyingi oyat bilan boshlash joiz. Misol:

الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

4. Lozim vaqf

Ba’zilar (joiz vaqf turlari) 4 ta deb, “lozim vaqf”ni alohida kiritadilar. Lozim vaqf **to‘xtash shart hisoblanib**, ulab ketilgan holatda ma’no noto‘g‘ri tushunilishining ehtimoli kuchli bo‘lgan vaqfdir.

م

NOJOIZ TO‘XTASH

Qabih vaqf – o‘zidan keyingi so‘zga lafzda va ma’noda bog‘liq bo‘lgan joyda to‘xtashdir. Bunday vaqf qilish oyat ma’nosining noqis yoki xato bo‘lishiga olib keladi. Shu bois **bunday o‘rinlarda to‘xtash mumkin emas.** Mabodo qori to‘xtashga majbur bo‘lib qolsa, ma’noga xalal yetmaydigan joydan boshlab qayta o‘qiydi.

Misollar:

«رَبِّ الْعَالَمِينَ» oyatidagi «رَبِّ» kalimasida.

«لَا يَغْفِرُ» kalimasidagi «لَا يَغْفِرُ» da.




«يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا لَا تَقْرَبُوا الصَّلَاةَ وَأَنْتُمْ سُكَرَىٰ» kalimasidagi «لَا تَقْرَبُوا الصَّلَاةَ» da.

«وَتَرَكْنَا يُوسُفَ عِنْدَ مَتْعِنَا فَاكَلَهُ الذِّبُّ» kalimasidagi «فَاكَلَهُ» da.

Mus’hafda ayrim o‘rinlarda ushbu لا alomati qo‘yilgan.



(SODDALASHTIRILGAN) VAQF QOIDALARI



TO'XTASH VOJIB!
Davom ettirish mumkin emas.



TO'XTASH afzal, ammo davom ettirish mumkin.



TO'XTASH va **DAVOM ETTIRISH** (ikkisi ham) joiz.




DAVOM ETTIRISH afzal, ammo **to'xtash** mumkin.



DAVOM ETTIRISH VOJIB!
To'xtash mumkin emas.



SAKTA (nafas olmay yengil **to'xtash**).



Ikkisidan birida **TO'XTALADI** (ikkalasida ham emas).

HAFSNING OSIMDAN QILGAN RIVOYATIDAGI MAXSUS JOYLARDAGI SAKTALAR

Sakta qiroatda davom etish niyatida vaqf vaqtidan kam bo‘lgan, nafas olmay yengil to‘xtash.

Hafsning rivoyatiga ko‘ra Qur’oni Karimning to‘rt joyida sakta qilinadi:

1

Kahf surasining 1 va 2-oyatlari o‘rtasidagi

«عَوَجًا» so‘zida:

«الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَنْزَلَ عَلَيَّ عَبْدِهِ الْكِتَابَ وَلَمْ

يَجْعَلْ لَهُ عَوَجًا ﴿١٠﴾ قِيَمًا...»

Vasl holatida (ulab o‘qilganda) bu o‘rinda sakta qilish vojib. Ammo tilovat qilayotgan odam shu yerda to‘xtab, nafas olmoqchi bo‘lsa, bu ham joiz.

2

Yosin surasining 52-oyatidagi

«مَرَّقِدِنَا» so‘zida:

قَالُوا يَا وَيْلَنَا مَنْ بَعَثَنَا مِنْ مَّرَّقِدِنَا هَذَا مَا وَعَدَ الرَّحْمَنُ وَصَدَقَ الْمُرْسَلُونَ ﴿٥٢﴾

Tilovat qilayotgan odam bu yerda to‘xtab, nafas olmoqchi bo‘lsa, bu joiz bo‘lib, tugal vaqf bo‘ladi. Lekin vasl qiladigan bo‘lsa (ulab o‘qib ketmoqchi bo‘lsa), u holda sakta qilib, nafas olmasdan yengil to‘xtashi vojib bo‘ladi.

3

Qiyomat surasining 27-oyatida:

وَقِيلَ مَنْ رَاقٍ ﴿٢٧﴾

Bu o'rinda idg'om qilish soqit bo'lib, izhor qilish vojib bo'ladi.

Bu o'rinda

« مَنْ » so'zida to'xtamaslik kerak, chunki ma'no tugal bo'lmay qoladi.

4

Mutoffifun surasining 14-oyatida:

كَلَّا بَلَّ رَانَ عَلَى قُلُوبِهِمْ مَا كَانُوا يَكْسِبُونَ ﴿١٤﴾

Ammo Haqqo surasining 28 va 29-oyatlari orasida yo sakta qilish, yo idg'om mislayn shaklida idg'om qilish joiz.

مَا أَغْنَىٰ عَنِّي مَالِيَّةٌ ﴿٢٨﴾ هَلْكَ عَنِّي سُلْطَانِيَّةٌ ﴿٢٩﴾

MAD QOIDALARI (jadval ko‘rinishida)

MADLAR NOMI	HARAKATLAR SONI	MISOLLAR
Tabiiy mad	2	قِيلَ
Badal mad	2	الْقُرْءَانُ
Evaz mad	2	رَحِيمًا
Kichik sila mad	2	لَهُ مَا فِي
Katta sila mad	2-4/5	مَا لَهُ أَحْلَدَهُ
Vojib muttasil mad	4, 5	شَاءَ
Joiz munfasil mad	2-4/5	تُوبُوا إِلَى اللَّهِ
Lozim musaqqal kalimiy mad	6	الصَّاحَّةُ
Lozim muxaffaf kalimiy mad	6	ءَأْتَنَ وَقَدْ كُنْتُمْ بِهِ تَسْتَعْجِلُونَ
Lozim musaqqal harfiy mad	6	الْم
Lozim muxaffaf harfiy mad	6	ق
Oriz mad	2-6	الْعُلَمِيْنَ
Lin mad	2-6	خَوْفِ

QO‘LLANMANI TUZISHDA FOYDALANILGAN MANBALAR:

- 1. Shayx Yahyo Abdurazzoq G‘avsoniy. Tarjimon: Foziljon Abdulqayum. “Osonlashtirilgan tajvid qoidalari”. “Hilol-Nashr” nashriyoti, Toshkent. 2018.**
- 2. Quran.uz kanali “O‘n kecha bilan qasam” dasturi.**
- 3. Quran.uz kanali “Qur‘on tartili” darslari.**
- 4. Doktor Ayman Rushdiy Suvayd. Tarjima va izoh mualliflari: Rahmatulloh Nurmatov, Tolibjon Qodirov. “Qur‘on o‘rganish qoidalari”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.**
- 5. Jahongir Ne‘matov. “Tartil (Qur‘on o‘qish qoidalari)”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.**
- 6. Abdulhakim qori Komiljon o‘g‘li. “Tajvid (Qur‘on o‘qish qoidalari)”. Imom Buxoriy nashriyoti, Samarqand. 2019.**
- 7. Shayx Vahba Zuhayliy. “at-Tafsir al-Munir”, 1-jild, 15-sahifa, “Darul Fikr” nashriyoti.**
- 8. Ziyovuddin Rahim. “Qur‘on - qalblar shifosi”. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, Samarqand. 2017.**
- 9. Ziyovuddin Rahim, Odilxon qori Yunusxon o‘g‘li. “Tajvid qoidalari”. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, Toshkent. 2011.**
- 10. Doktor Muhyiddin Muhammad Avvoma. Tarjimon: Ismoil Muhammad Yusuf. “Javome‘ul kalim”. “Hilol-Nashr” nashriyoti, Toshkent. 2018.**
- 11. Islom.uz sayti.**

MUNDARIJA

Muqaddima	2
Qur'oni Karim va "tajvid" haqida tushunchalar	3
Qur'on Karim o'qish fazilati	4
Maxrajlar surati: halqum, tanglay, til, tishlar	5
Arab alifbosi harflarining maxraji	8
Sukunli "nun" va tanvin qoidalari: izhor, iqlob, idg'om, ixfo	17
Sukunli "mim" qoidalari: shafaviy ixfo, idg'om, izhor	20
Mad qoidalari	21
Asliy madlar: tabiiy mad, badal mad, evaz mad, sila mad	22
Far'iy madlar va uning turlari: vojib muttasil mad, joiz munfasil mad, lozim mad	24
Lozim madning turlari: lozim musaqqal kalimiy mad, lozim muxaffaf kalimiy mad, lozim musaqqal harfiy mad, lozim muxaffaf harfiy mad	26
Oriz mad, lin mad	27
Qalqala va uning turlari	28
"Ro" harfining qoidalari: tarqiq, tafxim, tafxim ham tarqiq ham joiz bo'lgan holat	30
Vaqf va ibtido	32
Vaqfning turlari	33
Ixtiyoriy vaqf va uning turlari	34
(Soddalashtirilgan) vaqf qoidalari	36
Hafsning osimdan qilgan rivoyatidagi maxsus joylardagi saktalar	37
Mad qoidalari (jadval ko'rinishida)	39
Foydalanilgan manbalar ro'yxati	40

